

MAKTAB PSIXOLOGINING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

*Jurayeva Mohijamol Xolmamatovna**Pop tumanidagi 64-sonli maktab psixologi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktab psixologining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan olib boradigan faoliyati hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, psixologik xizmatning asosiy vazifalari va ta'lim muassasasidagi samarali faoliyatining pedagogik-psixologik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktab psixologi, ta'lim jarayoni, psixologik xizmat, o'quvchi, tarbiya, psixologik maslahat, diagnostika, rivojlantiruvchi ishlar, pedagogik hamkorlik.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida nafaqat o'quvchilarning bilim olishi, balki ularning psixologik salomatligi, shaxs sifatida kamol topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli maktab psixologining faoliyati ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Maktab psixologi o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish, ularning muammolarini aniqlash va bartaraf etish hamda sog'lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Maktab psixologining ta'lim jarayonidagi ahamiyati. Maktab psixologi ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhitni yaratishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ta'lim olish jarayoniga moslashuvini ta'minlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarga qabul qilingan bolalarning maktab hayotiga moslashishi, yuqori sinf o'quvchilarining kasb tanlashi va imtihonlarga tayyorgarlik davrida yuzaga keladigan ruhiy zo'riqishlarni kamaytirishda psixologning hissasi katta. Maktab psixologi o'quvchilarda uchraydigan tortinchoqlik, tajovuzkorlik, o'ziga ishonchsizlik, muloqotdagi qiyinchiliklar kabi muammolarni aniqlab, ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatadi. Bundan tashqari, u sinf jamoasidagi munosabatlarni o'rganib, nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar tashkil etadi.

Psixolog pedagoglar bilan hamkorlikda o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi psixologik to'siqlarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Bugungi raqamli davrda internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar ruhiyatiga ta'siri kuchayib borayotganligi sababli maktab psixologlari

tomonidan axborot xavfsizligi, media madaniyat va kiberbullingning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlari ham olib borilmoqda. Shu jihatdan maktab psixologining faoliyati nafaqat ta'lim jarayoni, balki yosh avlodning ma'naviy va ruhiy barkamolligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab psixologining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning psixologik rivojlanishini kuzatish va ularga zarur yordam ko'rsatishdan iborat. Psixolog o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida turli diagnostik metodlardan foydalanadi. Ta'lim jarayonida maktab psixologi quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

1. **Psixologik diagnostika** – o'quvchilarning intellektual, emotsional va shaxsiy rivojlanish darajasini o'rganish.
2. **Psixologik profilaktika** – turli salbiy holatlarning oldini olish, sog'lom psixologik muhit yaratish.
3. **Psixologik maslahat berish** – o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglarga tavsiyalar berish.
4. **Korreksion va rivojlantiruvchi ishlar** – aniqlangan muammolarni bartaraf etish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.
5. **Kasbga yo'naltirish ishlari** – o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlariga mos ravishda kelajak kasbini tanlashiga ko'maklashish.

Maktab psixologi o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Ota-onalar bilan muntazam hamkorlik esa bolalarning oiladagi va maktabdagi xulq-atvorini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Ta'lim muassasasida samarali psixologik xizmatning yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshishiga, ijtimoiy moslashuvining yaxshilanishiga va ruhiy salomatligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktab psixologi ta'lim jarayonining muhim ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Uning faoliyati o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, psixologik muammolarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida maktab psixologining roli tobora ortib borayotganligi sababli uning faoliyatini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

2. G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. Nishonova Z.T. *Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
4. Davletshin M.G. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. – Toshkent, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

